



SHODMONQUL SALOM SHE'RIYATI TILINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Hamdamova Fotima Rahmatulla qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shodmonqul Salom she'riyatining leksik tahlili qilindi. Ijodida uchraydigan adabiy til unsurlari va umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlar aniqlandi. Shuningdek, she'rda mavjud so'zlarning izohi va she'rning umumiy xulosasi ham yoritib o'tildi

Tayanch so'zlar: Adabiy til va xalqona leksikaning uyg'unligi, She'riy tilda qo'llanilgan umumxalq leksikasi va individual qo'llanmalar.

Badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilish filologiya ilmining eng muhim masalalaridan biri bo'lganidek, adabiy til taraqqiyoti yo'llarini aniqlab berishda ham chuqur ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tilining keng o'rganilayotgan aspektlardan biri leksik-stilistik aspekt bo'lib, badiiy asar tilini bu usulda o'rganish tilshunoslik uchun qanchalik muhim bo'lsa, adabiyotshunoslik uchun ham shunchalik muhimdir. Rus tilshunosligida badiiy adabiyot tilini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar mavjud.

Bu sohadagi yirik tadqiqotlar sifatida akademik V.V Vinogradov¹, professor A.I.Yefimovning², bir qancha asarlarini misol keltirish mumkin. Bu ishlarda badiiy adabiyot tili, uni o'rganish va tahlil qilishni nazariy masalalari atroflicha bayon qilingan. V.V.Vinogradov badiiy asar leksikasini o'rganishda so'zlarni turlistilistik qatlamlarga ajratib, shu asosda leksik vositalarning stilistik funksiyasini aniqlashni tavsiya etadi³. Rus tilshunosligida badiiy adabiyot tili va uslubini o'rganishga

¹ В.В Виноградов языке художественной литературы 1977. С. 7. И другие

² “Слово в русской советской поэзии” М 1973 “Языковые процессы современной русской художественной литературы”М 1977 Винокур Г.О. Критик Поэтического текста. – М.: Государственная Академия художественных наук, 1927

³ В.В Виноградов Поэзия Анна Ахматовой. Л. 1925.



bag‘ishlangan bir qator ishlar maydonga keldi.⁴ Bu asarlar orasida ayniqsa poeziya tili va poetic nutq masalalariga bag‘ishlangan ikki to‘lam xarakterlidir. “Слово в русской советской поэзии” kitobida poeziyada so‘z, so‘zning poetik nutq jarayonidagi roli, obrazlilikni ta‘minlash ko‘lami, poetik nutq stilistikasi, so‘z qo‘llash novatorligi masalalari atroflicha, faktik materiallar asosida tahlil qilinadi. “Языковые процессы современной русской художественной литературы” kitobida hozirgi poeziya tili xususiyatlari rus poeziyasi materiallari asosida tahlil qilinadi. Kitobda poeziya tilining yuqori va poetik leksikasi, arxaik so‘zlarning poetik nutq jarayonida leksik vosita sifatida bajaradigan vazifasi masalalari, shuningdek bu leksik elementlarni o‘rganish muhimligi qayd etilgan.

O‘zbek poetik leksikasining asosiy negizini asl turkey so‘zlar tashkil qiladi. Turkiy so‘zlar o‘zbek poeziyasida asrlardan buyon ishlatilishi bilan birga tilning qonun-qoidalariga muvofiq yangi so‘zlar yasalishi uchun o‘zak bo‘lib, o‘zbek poeziyasida turkcha so‘zlarning yanada ko‘payishini ta‘minlaydi. Hozirgi o‘zbek poeziyasida bitmoq, bol, o‘shal, qalb, dudog‘, inju, ochun, og‘u, tegra, chechak, erur, yalov, yor, nogoh kabi turkey so‘zlar qo‘llanmoqda.

Juda qadimdan buyon fors-tojiklar bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqala, territorial yaqinlik natijasida o‘zbek poetic leksikasiga fors-tojik tilidan ko‘pgina so‘zlar kirgan va ular asosan, ot turkumidagi so‘zlardir. Masalan, abr, anduh, afg‘on, ashk, bo‘sa, bo‘ston, gardun, giryon, gulzor, gulruh, gulshan, diyor, kamand, kishvar, mahvash, mahliqo, mohtob, mujda, nigoh va boshqalar.

VII-XIII asrlarda O‘eta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi madaniy hayotga qolaversa, tilga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Arab tilining keng yoyilishiga olib keldi. Masalan, abad, azim, ayyom, anbar, andalib, ag‘yor, bashar, bahr, boqiy, vasl, visol, zakiy, izhor, ishq, Kabir, malak, mahzun, nasim, oraz, sabo, sanam, uzor,

⁴Тимофеева .В.В Язык поэта (Поэтические язык Маяковского). М.



falak, fano, hilqat, gʻznim, gʻorat, hajr, va boshqalar arab tilidan oʻzlashgan boʻlib oʻzbek sheʼriyatida keng qoʻllanmoqda.

Oʻzbek poetik leksikasining boyishidagi yangi davr- Ulugʻ Oktyabr revolyutsiyasi gʻalabasi bilan bogʻliq. Bu davrda oʻzbek poeziyasi rus tili va us tili orqali kirgan soʻzlar hisobiga boyidi.

Oʻzbek poetik leksikasi soʻz sanʼatkorlari tomonidan ijod etilgan yangi soʻzlar va yangi yasamalar bilan ham boyib boradi. Hozirgi oʻzbek sheʼriyati bilan tilida koʻproq poetik uslub uchun xos boʻlgan shaxs otlari: yelkadosh, oyoqdosh, oʻlkadosh, qadamdosh, gʻururdosh, baxtnoma, sharafobod, nurobod, nurxona kabi soʻzlar qoʻllanmoqda.⁵

Oʻzbek sheʼriyatida oʻz oʻrniga ega ijodkor Shodmonqul Salom poeziyasini tadqiq qilar ekanmiz eng avvalo, adabiy til tushunchasin kengroq yoritamiz. Adabiy — muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va meʼyorlashtirilgan, mazkur tilda soʻzlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. „Qayta ishlangan“ tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til oʻzgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqda ham Adabiy til turli davrda turlicha boʻlgan (mas, qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi oʻzbek adabiy tili). Baʼzi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili Adabiy til vazifasini oʻtagan. Har qanday Adabiy til xalq ogʻzaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi.

Shevalar tarixan qanchalik barqaror boʻlsa, Adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtayi nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda koʻpgina mamlakatlar (masalan Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar adabiy til bilan teng suratda qoʻllanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bogʻlanadi. Ammo bu bogʻlanish bir tomonlama. Chunki til uslubiylarining oʻzi adabiy til koʻrinishlari hisoblanadi. Ular tarixan

⁵ B. Umurqulovning “Poetik nutq leksikasi” (Toshkent: (Oʻzbekiston Fan nashriyoti 1990 y. 18 b)



shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo‘ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma’lum shaklda birikishi va vazifasining o‘ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi.

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) o‘zbek Adabiy til rivojini ta’minlovchi muhim voqea bo‘ldi. O‘zbek Adabiy til i turli xalqlar Adabiy til i rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda⁶

Shodmonqul Salom o‘tnafas shoir nasr va nazmda birday qalam tebratib kelayotgan ijodkordir. Uning hikoyalariga xos‘tkir dinamika, publisistikasiga mansub keskinlik, nasriy asarlarida mavjud falsafiy mag‘zito‘qlik she’riyatida birvarakayiga bor bo‘yi bilan namoyon bo‘ladi. Shodmonqul Salom she’riyatida adabiy til va umumxalq tili tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak uning.

Yodgorxon to‘qsonda davra qildilar

Ul sayyidzodani olam bildilar⁷

She’rida “davra qildi” birikmasi umumxalq tilida mavjud bo‘lib inson vafot etganda ishlatiladi. Ushbu so‘z xalq tilida keng qo‘llaniladi va tilshunoslikda evfemizmlar sirasiga kiradi. Evfemizmlar yumshoq so‘zlar bo‘lib, ushbu xususiyati bilan qo‘pol so‘zlardan ajralib turadi.

Yetti farzandidan chohgohda judo

Shafoat aylasin bizni Mustafo⁸

Chohgohda tojikcha so‘z bo‘lib, tong otgandan 9 gacha bo‘lgan vaqtni bildiradi. Umumxalq tilida ko‘p qo‘llaniladi. Ijodkor Surxon vohasi farzandi

⁶ www.disnatlib.uz

⁷ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 22 b

⁸ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 37 b



bo‘lganligi sabab umumxalq tilida uchraydigan so‘zlarni ko‘p qollaganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Akam keldi otdan tushdi dashtda edi

Labi qotgan lek alamnok shashtda edi⁹

Ushbu she’rda “Alamnok” so‘zi umumxalq tilida qo‘llaniladi va alamga, g‘azabga to‘lgan degan ma’noni anglatadi. Ijodkor birgina shu so‘z orqali qahramonning kayfiyatini, fe’l-atvorini ochib bergan

“Seni ko‘rib, kulgan ko‘zim to‘lmasmidi,

Qayroqtoshday bir tosh tug‘sam bo‘lmasmidi”¹⁰

Ushbu misra shoirning “Men mast edim onaginam ro‘za edi” deb nomlanuvchi she’ridan olingan. Ikkinchi misrada keltirilgan qayroqtosh so‘zi umumxalq tilida qo‘llaniladi va u bilan p uy-ro‘zg‘or buyumlaridan o‘tkir tig‘li asboblarni charxlash uchun ishlatilgan.

“Bir bore mish, bir yo‘q emish” yo‘q zamonda

Bul gaplarni aytguvchi ham yo‘qmish anda

Shul ertakni eshitguvchi lomakonda

Chinim aytsam, bunday ertak yo‘q davronda¹¹

She’rda shoir umumxalq tilida ishlatiladigan “chinim” so‘zi ya’ni rost gap degan ma’noni anglatadi. Asosan Surxon vohasida qo‘llaniladi. Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish dostonlarda ishlatilgan. Bundan tashqari Chin so‘zi mamlakat nomi bo‘lib

⁹ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 39 b

¹⁰ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 45 b

¹¹ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 47 b



ham keladi. Chin soʻziga im egalik qoʻshimchasi qoʻshilib rostini aytsam degan maʼnoni ifodalaydi.

Boqdim samovotda yulduzlar tugal,

Oy vazmin suzadi tunni oralab

Ona yetolmadim joʻnab ketdi yoʻl,

Hayot gʻoliblarni boʻpti saralab¹²

Adabiy til meʼyorlariga rioya qilgan holda yozilgan bu sheʼr ijodkorning “Bedor nabiraga aytilgan ertak” sheʼridan olindi. Baytda inson hayotda gʻolib boʻlishi uchun ertaroq harakat qilishini taʼkidlamoqda. Samovot soʻzi osmon soʻzining maʼnodoshi boʻlib kelgan. Sheʼrda vazmin, gʻolib, samo, suzadi, saralab soʻzlari adabiy tildagi soʻzlardir.

Koinotning bir chetida oʻltirarmish

Bir-biriga qiziqsinib moʻltirarmish,

Sovuqlarda gʻor tubida qaltirarmish

Koʻkka boqsa qarogʻlari yaltirarmish¹³

Sheʼrdagi qaltirarmish, oʻltirarmish, yaltirarmish soʻzlari qofiya boʻlib kelgan barchasi adabiy tilga xos soʻzlardir. Shoir sheʼr yozarkan adabiy til unsurlari va shevaga xos boʻlgan sozlardan unumli foydalanadi. Insonning umr kechirishi, hayot saboqlari va buy oʻlda qilgan saʼy-harakatlari haqida urgʻu beradi.

“XXI asrga aytarim” sheʼrida ham ijodkorning adabiy til qoidalariga rioya qilgan qolaversa, jonlantirish sanʼatidan ham mohirlik bilan foydalanadi.

¹² Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun Oʻzbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 47 b

¹³ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun Oʻzbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 49 b



Zamin bekor aylanmas ekan, vaqt fazoda fitna tugadi.

Yulduzlarning gohi-gohida yer shariga ko‘zi tegadi¹⁴

Zamin – yer , fazo – osmon adabiy tildagi so‘zning badiiy uslubdagi varianti qo‘llangan. Vaqtning osmonda fitna tugushi vaqtning bevafo ekanligi va u hech kimga vafo qilmasligi haqida fikr yuritiladi. Yulduzlarning yer shariga havas qilishi natijasida ko‘zi tegishi ham jonlantirish san’ati orqali chiroyli ochib berilgan.

“Iztirob mayiga” she’rida shoirning hayotning achchiq haqiqatlari ochib beriladi.

Odam juda ko‘ngilchan edi,

Ishonuvchan, sahovatpesha,

Maymunlarning dumin o‘rardi,

Ilonga she’r aytib berardi

Hammani o‘ziday ko‘rardi¹⁵

Sofdil, qalbi pok insonlar doim yomonlikni ko‘rmaydilar, ko‘rsalar-da e’tibor bermaydilar va yaxshilikka xizmat qilishdan charchamaydilar. She’rda adabiy til me’yorlariga mos keluvchi so‘zlardan foydalanilgan. Masalan, sahovatpesha, ishonuvchan, ko‘ngilchan. Maymunsifat odamlar, ilonga o‘xshash kimsalarning yomonligini bilsa-da ularga yomonlik qilmaydi Aksincha, qamday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi.

Dilni domulloga o‘qishga berdim,

Bir harf o‘rgatmadi o‘ttiz yildan so‘ng

¹⁴ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 53 b

¹⁵ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 53 b



“Maynasi och” dedi qaytarib berdi

Qaytarib keldim¹⁶.

She’rda umumxalq tilida qo’llaniladiga domullo so’zi qo’llangan. Lekin aslida madrasa va machitda dars o’tuvchilarga nisbatan domullo so’zi qo’llaniladi. Umumxalq tilida esa o’qituvchiga nisbatan shu so’z ishlatiladi. Adabiy tilda esa ustoz, o’qituvchi kabi nomlar bilan ataladi. Xuddi, shunday shakl adabiy

Bir polvon boboga olishga berdim,

Bir hadis bilmabdi o’ttiz yil yurib.

“Iligi puch” dedi quvib yubordi,

Ovutib keldim¹⁷.

Ushbu she’rda umumxalq tilida ishlatidan so’zlardan o’zbeklarning dunyoga mashhur milliy sport turlaridan biri kurash so’zining varianti “olish” so’zi ifodalangan. Qadimda to’y-hashamlarda, bayramlarda erkaklar olish tushishgan. Bundan tashqari xalq tilida ko’p uchraydigan iligi to’q, iligi puch kabi iboralar yigitlarning kuchli, baquvvatligi, pishiqligiga nisbatan ishlatilgan. Qolaversa, omma tilida ko’p ishlatiladigan ovutmoq fe’li ham shevaga xos so’zlar sirasiga kiradi.

Asta-asta oqaradi tong,

Asta-asta bo’ylaydi quyosh.

Asta-asta soch yig’ar xayol

Asta-asta ko’tarilar bosh¹⁸

¹⁶ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O’zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 53 b

¹⁷ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O’zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 53 b

¹⁸ Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O’zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y 53 b



Ijodkor bu she’rda anafora janridan foydalanadi. Anafora she’rda misraning boshida takrorlanib keladigan so‘zdir. Bu esa bevosita she’rning musiqiyligini va ta’sirchanligini oshiradi. Shoir xayolning soch yig‘ishi bilan xayol insondagi sirli kichik-kichik kechinmalar negizida paydo bo‘lishini ta’kidlamogchidek go‘yo. She’rda adabiy til me’yorlariga to‘liq amal qilingan va umumxalq tilida uchraydigan so‘zlarni uchratmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. В.В Виноградов языке художественной литературы 1977. С. 7. И другие
2. “Слово в русской советской поэзии” М 1973 “Языковые процессы современной русской художественной литературы”М 1977
3. Винокур Г.О.Критик Поэтического текста. М. Государственная Академия художественных наук, 1927
4. В.В Виноградов Поэзия Анна Ахматовой. Л. 1925.
5. Тимофеева .В.В Язык поэта (Поэтические язык Маяковского). М.
6. В. Umurqulovning “Poetik nutq leksikasi” (Toshkent:(O‘zbekiston Fan nashriyoti 1990 y. 18 b)
7. www.disnatlib.uz
8. Shodmonqul Salom Jahonda onalar borligi uchun O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi T.2022 y